

## KITOB – ENG YAXSHI DO'STIMIZ!

### Kitob o'qigan bola

O'rganar avval odob  
 Kitob o'qigan bola.  
 Yuzi bo'ladi oftob  
 Kitob o'qigan bola.

Hurmat qilar kattani,  
 Kichiklar jon-u tani,  
 Bajaradi va'dani –  
 Kitob o'qigan bola.

*Po'lat Mo'min*



**Kitob** – ma'lumot, bilim va tarbiya manbayi. Kitobdan yangi, qiziqarli, foydali ma'lumotlarni o'rganamiz. Ertaklar yoki hikoyalardan iborat kitoblar, turli mamlakatlarga sayohatlar yoki fantastik sarguzashtlar haqida kitoblar bor. Yana ilm-fan, texnika, tabiat, o'simliklar va hayvonot olami haqida ilmiy-ommabop kitoblar hamda ensiklopediyalar ham bor.





Gaplarni mantiqiy davomi bilan to'g'ri moslashtiring.

**Kitobsiz odam**

**ilmlı qiladi, tarbiyalaydi**

**Kitob insonni**

**olim odam bilan gaplashgandek bo'lasan**

**Yaxshi kitob o'qisang**

**qanotsiz qushga o'xshaydi**



1. Kitoblar nimadan qilinadi?
2. Qog'oz qanchalik mustahkam material?
3. Rasmlarga qarab, qog'oz qanday tayyorlanishini aytib bering.




## Yod olingan kitob



Alisher Navoiy bolaligida Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini juda sevib o'qirdi. Ota-onasi uning mutolaaga qattiq berilganidan bezovta bo'ldilar. Chunki bola erta-yu kech kitobdagi jumlalarni takrorlardi.

Bolaning sog'lig'idan xavotirga tushgan ota-onai kitobni yashirib qo'ydi. Ammo yosh Alisher xayolini egallagan o'sha kitobni yoddan takrorlab yuraveradi. U mashhur shoir bo'lib yetishgach, "Mantiq ut-tayr"ga o'xshagan kitob yozdi.

Alisher Navoiyning buyuk inson bo'lishiga kitoblar sabab bo'lgan.



## Kitoblar shifoxonasi



Kitoblar ham odamlar kabi kasal bo'lib qolishi mumkin. Ular o'zlariga nisbatan ehtiyoitsiz munosabat tufayli kasal bo'ladilar. To'g'ri, ular yo'talmaydi, aksirmaydi, isitmasi chiqmaydi. Biroq ularni davolash kerak bo'ladi.

Kitob sahifasi yirtilgan bo'lsa, matn ko'rinib turishi uchun uni yelimli tasma (skotch) bilan yopishtiriladi.


G'ijimlangan sahifani qog'ozlar orasiga qo'yib, dazmol bilan tekislash mumkin.

Barmoq va qalam izlarini yumshoq o'chirg'ich bilan o'chirish kerak.

Agar kitobning muqovasi yoki sahifasi yirtilgan bo'lsa, nima qilamiz? Buning uchun 5-6 cm kenglikda qog'oz yoki mato kesib olamiz. Unga yelim surtib, yirtilgan joyga yopishtiramiz. So'ng yaxshi yopishishi uchun og'irroq jism ostiga qo'yamiz.



### Rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring.



1. Kitoblar qanday "kasal" bo'ladi?
2. Ularni kim "kasal" qiladi?
3. Kitoblarni nima uchun avaylash kerak?



Kitobni o'qib bo'lganingizdan keyin uni birovga o'qishga berib turishingiz mumkin. Masalan, sinfdosh do'stlaringiz bilan kitob almashing. Shunda kitoblar sizning javoningizda chang bosib yotmaydi va ular yangi hayotini boshlaydi. Hozirda butun dunyoda ularning umrini uzaytiradigan, tabiatni asrashga yordam beradigan kitob almashish harakati rivojlanmoqda.



### Kitob o'qishning foydalarি:

- darslarni tez va oson o'zlashtirishga yordam beradi;
- so'z boyligini oshiradi;
- fikrni charxlaydi;
- miya faoliyatini yaxshilaydi;
- kayfiyatni ko'taradi;
- xotirani mustahkamlaydi;
- ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi;
- yaxshilikka undaydi;
- chet tillarini o'rganishga yordam beradi.

Bu ro'yxatga yana nimalarni qo'shish mumkin?



"Do'starning sevimli kitobi" mavzusida tadqiqot o'tkazing.